



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 03 | pp. 66-73 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TADBIRKORLIK TUZILMALARI MUHITINING MOHIYATI VA TARKIBI



Dilafruz Kosimovna Mardonova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy iqtisodiyotda tadbirkorlik tuzilmalarining muhiti, uning mohiyati va tarkibiy elementlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadbirkorlik tuzilmalarining milliy iqtisodiyotdagi o'рни, ularning iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Maqolada tadbirkorlik tuzilmalarining institutsional muhit bilan o'zaro bog'liqligi, ularning funksiyalari va iqtisodiy tizimdagi roli ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot natijalari tadbirkorlik tuzilmalarining rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda tashkiliy muhit omillarini hisobga olish muhim ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, tadbirkorlik tuzilmalari, tadbirkorlik muhiti, institutsional muhit, iqtisodiy tizim, raqobatbardoshlik, tashkiliy muhit, ichki va tashqi omillar, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация. В статье проведен научный анализ среды бизнес-структур в современной экономике, ее сущности и структурных элементов. Обоснована роль бизнес-структур в национальной экономике, их важность в обеспечении экономического роста, создании новых рабочих мест и повышении конкурентоспособности. Также на основе системного подхода проанализированы внутренние и внешние факторы, влияющие на бизнес-среду. В статье научно и теоретически освещена взаимосвязь бизнес-структур с институциональной средой, их функции и роль в экономической системе. Результаты исследования показывают, что при разработке стратегии развития бизнес-структур важно учитывать факторы организационной среды.

Ключевые слова: предпринимательство, бизнес-структуры, бизнес-среда, институциональная среда, экономическая система, конкурентоспособность, организационная среда, внутренние и внешние факторы, экономическое развитие.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the business environment in the modern economy, its essence, and structural elements. It substantiates the role of business structures in the national economy and their importance in ensuring economic growth, creating new jobs, and enhancing competitiveness. Using a systems approach, it also analyzes the internal and external factors influencing the business environment. The article provides a scientific and theoretical perspective on the relationship between business structures and the institutional environment, their functions, and their role in the economic system. The results of the study

demonstrate that it is important to consider organizational environmental factors when developing a business development strategy.

Keywords: *entrepreneurship, business structures, business environment, institutional environment, economic system, competitiveness, organizational environment, internal and external factors, economic development.*

1. Kirish

Zamonaviy iqtisodiy tizimda tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlari milliy daromadni shakllantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirish, xususiy mulkni himoya qilish, soliq yukini kamaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali qulay tadbirkorlik muhiti shakllantirilmoqda. Natijada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi ortib, ular iqtisodiy rivojlanishning muhim drayverlaridan biriga aylanmoqda.

Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyatining samarali rivojlanishi ko'p jihatdan tadbirkorlik tuzilmalari faoliyat yuritadigan iqtisodiy, huquqiy, institutsional va infratuzilmaviy sharoitlarga bog'liqdir. Tadbirkorlik tuzilmalari muhiti tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi, faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar majmuasini ifodalaydi. Mazkur muhitning tarkibiga iqtisodiy omillar, huquqiy-me'yoriy baza, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari, bozor infratuzilmasi hamda davlat tomonidan yaratilgan rag'batlantiruvchi mexanizmlar kiradi. Shu sababli tadbirkorlik tuzilmalari muhitining mohiyati va tarkibini ilmiy jihatdan o'rganish, uning samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash zamonaviy iqtisodiyot sharoitida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

2. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Tadbirkorlik nazariyasi iqtisodiy fanlarda keng o'rganilgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik tushunchasini ilmiy jihatdan asoslashda bir qator iqtisodchi olimlar muhim hissa qo'shgan.

Jumladan, R. Kantilon tadbirkorlikni iqtisodiy riskni qabul qilish bilan bog'liq faoliyat sifatida talqin qilgan. Y. Shumpeter esa tadbirkorlikni innovatsiyalar va iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida baholagan. Uning fikricha, tadbirkorlar iqtisodiyotda yangi mahsulotlar, texnologiyalar va bozorlarni shakllantirish orqali iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantiradi.

P. Druker tadbirkorlikni innovatsion boshqaruv faoliyati sifatida ko'rib chiqqan bo'lib, uning ta'kidlashicha, tadbirkorlik faqat biznes yuritish bilan cheklanmaydi, balki iqtisodiy imkoniyatlarni izlash va ulardan samarali foydalanish jarayonini ham qamrab oladi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari ham tadbirkorlik muhiti va uning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini keng o'rganib kelmoqda. Ular tadbirkorlikni rivojlantirishda institutsional muhit, davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va bozor infratuzilmasining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratishgan.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning qator usullaridan foydalanildi. Jumladan, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, iqtisodiy tahlil hamda umumlashtirish usullari qo'llanildi.

Tadbirkorlik tuzilmalari muhitini tahlil qilishda tizimli yondashuv asosiy metodologik asos sifatida tanlandi. Mazkur yondashuv tadbirkorlik tuzilmalarini iqtisodiy tizimning o'zaro bog'liq elementlari sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi omillarni ichki va tashqi omillarga ajratish usulidan foydalanildi. Bu usul tadbirkorlik tuzilmalarining tashkiliy muhitini kompleks tahlil qilish va ularning rivojlanish strategiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

4. Tahlil va natijalar

O'zbekistonda tadbirkorlikning rivojlanishi mustaqillikdan keyingi davrda bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Xususan, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida xususiy sektorning ulushini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, jumladan, litsenziya va ruxsat berish tartib-tamoyillarini soddalashtirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, biznes yuritishga oid ma'muriy to'siqlarni kamaytirish tadbirkorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan mamlakat iqtisodiyotida shakllangan investitsion muhit, moliya bozorining rivojlanish darajasi, mehnat resurslarining sifat ko'rsatkichlari va innovatsion infratuzilmaning holatiga bog'liq. Shu bois tadbirkorlik tuzilmalarini rivojlantirish nafaqat alohida korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlari o'rtasida samarali o'zaro hamkorlikni ta'minlashni ham talab qiladi. Bu esa tadbirkorlik sub'ektlarining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.


Zamonaviy sharoitda tadbirkorlik alohida korxona yoki firma faoliyati sifatida emas, balki turli iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi sifatida qaraladi. Bunday tizimda davlat institutlari, moliyaviy tashkilotlar, ta'lim va ilmiy muassasalar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari hamda jamoat institutlari o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadi. Tadbirkorlik tuzilmalarining samaradorligi nafaqat ularning tijorat natijalari bilan, balki milliy iqtisodiy tizimda yuz berayotgan institutsional o'zgarishlar va innovatsion rivojlanish darajasi bilan ham belgilanadi.

Ilmiy-metodologik yondashuvni aniqlashtirish maqsadida mazkur tadqiqotda «tadbirkorlik tuzilmasi» tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: tadbirkorlik tuzilmasi - bu ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi, tashkiliy-iqtisodiy jihatdan shakllangan va bozor munosabatlari sharoitida mustaqil ravishda faoliyat yurituvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tizimidir. Ushbu tuzilma tadbirkorlikka xos bo'lgan tashabbuskorlik, riskka tayyorlik, resurslarni samarali taqsimlash va bozor talabiga moslashish kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Shu bilan birga, tadbirkorlik tushunchasining mohiyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur kategoriya uchun yagona va barcha tomondan e'tirof etilgan ta'rif

mavjud emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik jarayonlari ko'plab ichki elementlar, o'zaro iqtisodiy munosabatlar va tashqi muhit omillari ta'sirida shakllanadi. Shu bois tadbirkorlik tuzilmalarini tahlil qilishda tizimli yondashuv muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mazkur tuzilmalarni iqtisodiy tizimning o'zaro bog'liq elementlari sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Shunga muvofiq, tadbirkorlik tuzilmalari tizimli yondashuv asosida muayyan iqtisodiy model yoki sxema ko'rinishida ifodalanishi mumkin (1-rasm). Ushbu model tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillar, institutsional muhit va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi.



1-rasm. O'zbekiston sharoitida Tadbirkorlik tuzilmasining iqtisodiy tizim sifatidagi modeli¹

Rasmda keltirilgan ma'lumotlarga muvofiq, iqtisodiy tizim uchun an'anaviy hisoblangan ishlab chiqarish omillari - mehnat, yer va kapitaldan tashqari, tadbirkorlik tuzilmalarida qo'shimcha resurslar, ya'ni tadbirkorlik qobiliyatlari va axborot ham faol ravishda qo'llaniladi.

Mazkur resurslar tadbirkorlik tuzilmalari faoliyatini amalga oshirish jarayonida transformatsiyalanib, korxonaning tashkiliy tuzilmasiga, vakolat va javobgarliklarning ichki taqsimotiga ta'sir ko'rsatadi hamda yangi tur va shakldagi munosabatlarning vujudga kelishini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, korxonalarning iqtisodiyotdagi funksiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shubhasiz, tadbirkorlik tuzilmalarining funksiyalari xalqaro mehnat taqsimoti tamoyillari bilan belgilanadi. Mazkur tamoyillar milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadbirkorlik tuzilmalarining eng muhim funksiyalari 1-jadvalda tizimlashtirilgan.

¹ Muallif ishlanmasi

1-jadval

Tadbirkorlik tuzilmalarining funksiyalari tizimi

№	Funksiyalar guruhi	Mazmuni
1	Iqtisodiy samaradorlikni oshirish sohasida	- foydani maksimallashtirish; - bozor nishasini kengaytirish; - ishlab chiqarish hajmini oshirish; - bozorda yetakchi pozitsiyani egallash.
2	Iste'molchilar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish sohasida	- mavjud talabni qondirish; - xodimlarning o'zini o'zi ro'yobga chiqarish ehtiyojlarini ta'minlash; - yangi ish o'rinlarini yaratish; - davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish.
3	Tashqi muhit bilan o'zaro hamkorlik sohasida	- tashqi muhit risklariga qarshi tura olish qobiliyati; - barqarorlikni ta'minlash; - iqtisodiy rivojlanish «konturlarini shakllantirish»; - iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik rivojlanish sohasida umumdavlat g'oyasiga muvofiqlik.

Shu tariqa, tadbirkorlik tuzilmalarining funksiyalari faqat korxonaning iqtisodiy rivojlanish vazifalarini hal etish bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatning boshqa sohalardagi ehtiyojlarini qondirish bilan ham uzviy bog'liqdir. Bu esa milliy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi sifatida tadbirkorlik faoliyati korxonalarning makro va mikro muhitini tashkil etuvchi turli omillar ta'sirida rivojlanadi. Jumladan, xalqaro, davlat, tarmoq sharoitlari, iste'mol bozori va boshqa omillar shular jumlasidandir. Korxonalar faoliyati differensial muhitda amalga oshirilishini inobatga olgan holda, ta'sir etuvchi asosiy omillarni tahlil qilish faqat raqobatchilar va iste'molchilar bilan cheklanib qolmasligi, balki bozorning kengroq sub'ektlar doirasini qamrab olishi lozim.

Shu munosabat bilan mazkur omil va shart-sharoitlarni tahlil qilish va diagnostikadan o'tkazish tadbirkorlik tuzilmalarining moslashuvchan raqobatbardoshlikni amalga oshiruvchi rivojlanish strategiyalarini prognozlash va ishlab chiqishning asosini tashkil etadi.

Tadbirkorlik tuzilmalari muhitini tahlil qilish deganda tashkiliy muhitni monitoring qilish, ya'ni barqaror va raqobatbardosh rivojlanishga mavjud va istiqboldagi tahdidlarni identifikatsiya qilish va baholashga qaratilgan jarayon tushuniladi.

Tadbirkorlik tuzilmalarining tashkiliy muhiti esa qo'yilgan maqsadlarga erishish imkoniyatiga ta'sir etuvchi omillar majmuasi sifatida talqin etiladi. Ushbu omillarga reaktiv munosabat bildirish korxonaning barqarorligini saqlab qolish imkonini beradi, shu sababli ichki moslashuvchanlik manbalarini rivojlantirish talab etiladi.


Tashkiliy muhitning taklif etilgan mazmuniga tayanadigan bo'lsak, uning tarkibiga kiruvchi omillar korxonaning salohiyati bilan o'zaro bog'liq ekanligini ta'kidlash zarur. Ya'ni aynan tashkiliy muhit orqali tadbirkorlik tuzilmalari o'z strategik xulq-atvorida moslashuvchanlik manbalarini shakllantiradi.

Shuning uchun, avvalo, tadbirkorlik tuzilmalari muhiti omillarining dinamikasini tadqiq etish va tahlil qilish lozim. Bu esa keyinchalik tashkiliy muhitni diagnostika qilish usullarini takomillashtirish va korxonalarning bozorning boshqa sub'ektlari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmini rivojlantirish bo'yicha asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadbirkorlik tuzilmalarining tashkiliy muhiti tizimlarning amal qilish qonuniyatlari bilan belgilanadigan dinamiklik, hatto turbulentslik xususiyatiga ega bo'lgani sababli, uning o'zgarishlarini prognozlash boshqaruvning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, tashkiliy muhitni korxona rivojlanishini ob'ektiv cheklovchi omillar majmuasi sifatida ham qarash lozim. Shu bois tadbirkorlik tuzilmalari strategiyalari doirasida barqarorlikni saqlab qolishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Demak, ushbu chegaralar o'zgarganda, moslashuvchan korxonaning salohiyati tezlashtirilgan rivojlanishni ta'minlash va yangi sharoitlarda samarali faoliyat yuritish uchun yetarli bo'lishi lozim.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga asosan tadbirkorlik tuzilmalarining tashkiliy muhitiga xos asosiy omillar 1.2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Tadbirkorlik tuzilmalarining tashkiliy muhit omillari tizimi

2-rasmda tashkiliy muhitning asosiy omillari shartli ravishda «ichki» va «tashqi» omillarga ajratilgan holda keltirilgan bo'lib, bu holat korxonalarning mazkur omillarga yuqori darajada bog'liqligi hamda ularning tadbirkorlik tuzilmalari faoliyati xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi:

– korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli va mulkchilik tuzilmasi;

- funksiyalari (ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari – ITTKI, ishlab chiqarish, marketing);
- korxona tuzilmasi va faoliyat ko'lamini;
- ishlab chiqarishning ilmiy-texnikaviy darajasi;
- tashkilotning ijtimoiy salohiyati;
- korporativ madaniyat;
- resurslar.

Shuning natijasida tashkiliy muhit omillarini aniq ravishda tashqi, ya'ni korxona ta'siriga bo'ysunmaydigan omillar, hamda ichki, ya'ni korxonaning o'zi ta'sirida o'zgarishi mumkin bo'lgan omillar sifatida qat'iy ajratishda muayyan metodologik murakkablik yuzaga keladi.

5. Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik tuzilmalari muhiti iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanadigan murakkab tizim hisoblanadi. Tadbirkorlik tuzilmalarining samarali faoliyati ularning ichki resurslari bilan bir qatorda tashqi muhit sharoitlariga ham bog'liqdir.

Tadbirkorlik muhitining asosiy tarkibiy elementlari sifatida institutsional muhit, moliya bozori, innovatsion infratuzilma, mehnat resurslari va davlat siyosatini ko'rsatish mumkin. Ushbu omillarning o'zaro muvofiqligi tadbirkorlik tuzilmalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, tadbirkorlik tuzilmalari muhitini tahlil qilishda tizimli yondashuvdan foydalanish tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholash imkonini beradi. Bu esa tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, ularning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshirish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Schumpeter J. The Theory of Economic Development. - Cambridge: Harvard University Press, 1934.
2. Drucker P. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. - New York: Harper & Row, 1985.
3. Hisrich R., Peters M., Shepherd D. Entrepreneurship. - New York: McGraw-Hill Education, 2017.
4. Kirzner I. Competition and Entrepreneurship. - Chicago: University of Chicago Press, 1973.
5. OECD. Entrepreneurship at a Glance. - Paris: OECD Publishing, 2023.
6. Audretsch D. Entrepreneurship and Economic Growth. - Oxford: Oxford University Press, 2006.
7. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari. - Toshkent, 2025.
8. Abdullaev Yo., Xodiev B. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent: Fan, 2018.
9. Qodirov T., Rahimov M. Kichik biznes va tadbirkorlik. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
10. Maxmudov E. Tadbirkorlik asoslari. - Toshkent: TDIU nashriyoti, 2019.
11. Rasulov A., Saidov S. Entrepreneurship Development in Transition Economies. - Tashkent: Economy Publishing, 2021.

12. World Economic Forum. Global Competitiveness Report. - Geneva, 2022.
13. Global Entrepreneurship Monitor. Global Report. - London, 2023.
14. Smallbone D., Welter F. Entrepreneurship and Institutional Environment. - International Small Business Journal, 2012.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

